

**XV-XVI ASRLARDA YARATILGAN ARUZ ILMIGA DOIR
RISOLALARNING QIYOSIY TAHLILI (“RISOLAI ARUZ” VA “CHAHOR
GULZOR” ASARLARI MISOLIDA)**

Xayyom Toshqulovich MIRZAYEV

Dotsent

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O'zbekiston
e-mail: umarixayyom@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada XV–XVI asrlarda yaratilgan aruz ilmiga doir risolalarning o'xshash va farqli jihatlari o'rganilgan. Tadqiqot obekti sifatida mazkur davrning muhim ikki nazariy asari – Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” va Xoja Hasan Nisoriyning “Chahor gulzor” nomli asarlari tanlangan. Xoja Hasan Nisoriyning aruz vazni haqidagi qarashlari XV asr aruzshunoslari Abdurahmon Jomiy va ba'zi o'rinlarda Sayfiy Buxoriy qarashlari bilan qiyoslangan. Muqoyasa va tahlillar natijasida “Risolai aruz” asarining “Chahor gulzor” asari uchun muhim sarchashma vazifasini o'taganligi aniqlangan hamda Nisoriyning Jomiy qarashlariga ergashganligi asoslangan.

Tayanch so'zlar: she'r, vazn, aruz, rukn, zihof, bahr, fors-tojik aruzshunosligi, XV–XVI asrlar adabiy muhiti.

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТРАКТАТОВ ПО АРУЗОВЕДЕНИЮ,
СОЗДАНЫХ В XV–XVI ВВ. (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ
«РИСОЛАИ АРУЗ» И «ЧАХОР ГУЛЬЗОР»)**

Хайём Тошқулович МИРЗАЕВ

Доцент

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Самаркандский государственный университет
имени Шарафа Рашидова
Самарканд, Узбекистан
e-mail: umarixayyom@mail.ru

Аннотация

В статье рассматриваются сходства и различия между трактатами по науке об арузе, созданных в XV–XVI веках. В качестве объектов исследования были выбраны два важных теоретических произведения этого периода: «Рисолаи аруз» («Трактат об арузе») Абдурахмона Джами и «Чахор гульзор» («Четыре цветника») Ходжи Хасана Нисари. Взгляды Ходжи Хасана Нисари о метрике аруза сравниваются со взглядами учёных-арузоведов XV века как Абдурахмон Джами и, в некоторых местах, Сайфи Бухари. В результате сравнения и анализа было определено, что произведение «Рисолаи аруз» послужило важным источником для произведения «Чахор гульзор» и установлено, что Нисари следовал взглядам Джами.

Ключевые слова: поэзия, метрика, аруз, столбец, размер, бахр, персидско-таджикское арузоведение, литературная среда XV–XVI вв.

XVI asrning bir qator fors-tojik nazariyotchilari she'riyatning uch asosiy ilmi: aruz, qofiya va badi' ilmlarini o'rganishga alohida e'tibor berib, ularning har biri ilmiy, nazariy va ta'limiy asarlar yozishga harakat qilganlar. Bu davr nazariyotchilari asarlarining XV asr mualliflari asarlaridan o'ziga xos farqli jihatlari shundaki, bir ilmiy risolada mualliflar nafaqat she'riyat ilmining bir sohasini, balki filologik ilmlarning bir qancha masalalarini ham o'rganganlar. Masalan, XVI asr nazariyotchisi G'iyosiddin Mansur Dashtakiy "Risolai aruz va qofiya" asarida aruz, qofiya, she'riy janrlar masalalariga e'tibor qaratgan bo'lsa, shu davrning yana bir yorqin vakili Xoja Hasan Nisoriy "Chahor gulzor" nomli ilmiy-ma'rifiy risolasida aruz, qofiya va badi' ilmini yoritish bilan birga, tilshunoslikka oid ilmiy, nazariy va ta'limiy qarashlarini ifodalagan. Bu jihatlarda shu narsadan dalolat beradiki, XVI asrda mualliflar o'z shogirdlariga filologik ilmlarning hamjihatlikda, o'zaro aloqadorlikda o'qitishni maqsad qilganlar hamda keyingi davr ilm-fan ahliga bu o'qitish tamoyillarini asarlari misolida targ'ib qilganlar.

Xoja Hasan Nisoriy XVI asrning mashhur shoir, tazkiranavis va nazariyotchi olimlaridan sanaladi. U taxminan 1516-yilda Buxoroda tug'ilgan. Nisoriy oilada o'sha davr adiblaridan bo'lgan otasi Said Podshohxo'ja ko'magida savod chiqarib, keyinchalik Buxoro madrasalarida o'qishni davom ettiradi va qisqa vaqt ichida shu shaharda iste'dodli shoir sifatida taniladi. Ma'lum bo'lishicha, Nisoriy o'z davrining ko'pgina fanlaridan kuchli bilimga ega bo'lsa-da, fors-tojik she'riyati, tili va adabiyotiga ko'proq mehr qo'ygan. "Muzakkiri ahhob" tazkirasi tarjimoni Ismoil Bekjonning aytishicha, Nisoriy otasidan aruz ilmi sirlarini o'rganib, iste'dodli yosh shoir sifatida shuhrat qozongan.

Nisoriydan qimmatli ilmiy va adabiy meros qolgan bo'lib, ulardan eng mashhuri "Muzakkiri ahhob" tazkirasi va "Chahor gulzor" ilmiy risolasi hisoblanadi. Nisoriyning qimmatli merosi orasida tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan juda yuksak qadriyatga ega bo'lgan "Chahor gulzor" ("To'rt gulzor") asari bizgacha etib kelgan va bu risola ko'proq ta'limiy ruhda yaratilgan. Bu asar Nisoriy tomonidan 1560-yilda fors-tojik tilida yozilgan.

“Chahor gulzor” to‘rt gulzor (bo‘lim)dan iborat va har bir gulzor o‘z navbatida gullarga (fasllarga) bo‘linadi.

Aruzshunos olim Urvatullo Toirov va uning hamkasblari Mirzo Solehov, Husnigul Talbakova, Savriya Do‘rmonovalar sa’y-harakatlari bilan 2014-yilda Mahdiy Hamidiyning “Aruzi Hamidiy”, Muhammad G‘iyosiddinning “Me’roj-ul-aruz” va “Chahor gulzor”ning aruzga bag‘ishlangan bobi “Aruzi Nisoriy” nomi bilan bitta to‘plamda nashr etildi. To‘plam mazkur uch asarni o‘z ichiga olganligi sabab “Se risolai aruz” (“Aruzning uch risolasi”) deb nomlangan.

“Chahor gulzor”ning “Aruzi Nisoriy” nomi bilan nashr etilgan bobi alohida risola shaklida yaratilgan va unda fors-tojik aruzshunosligidagi risola yaratish an‘analarining munosib davom ettirilishini kuzatish mumkin. Nisoriyning aruz ilmi haqidagi qarashlarini o‘rganar ekanmiz, uning yaratilishida Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan “Risolai aruz” asarining jiddiy ta’sirini kuzatamiz. Ushbu ta’sirlanishni aruz vaznining ko‘pgina nazariy muammolarini hal qilishda ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Nisoriy aruz ruknlarini o‘rganish jarayonida uning fors-tojik she’riyatida amaliy jihatlariga e’tibor bergan va bu masalada Jomiy nuqtai nazarini qabul qilgan. Masalan, Jomiy “Risolai aruz” asarida ruknlarning amaliy jihatlar haqida quyidagi aqidani keltirgan: “Va fors she’riyati vaznida ko‘p iste’molda bo‘lgan ruknlar beshdan ortiq emas: *mafoiylun*, *foilotun*, *mustaf’ilun*, *maf’ulotu*, *fao’lun*” [1.163]. Nisoriy Jomiyning ushbu jumlasini so‘zma-so‘z keltirib, “Va fors she’riyati vaznida ko‘p iste’molda bo‘lgan ruknlar besh-oltitadan ortiq emas: *mafoiylun*, *foilotun*, *mustaf’ilun*, *maf’ulotu*, *fao’lun*” [5.63], deb ta’kidlab, fors-tojik she’riyati vazni amaliyotida ruknlarning faqat besh-oltitasi qo‘llanilishini aytib o‘tadi. Ma’lum bo‘ladiki, Nisoriyning bu boradagi nuqtai nazari Abdurahmon Jomiy qarashlari bilan bir xil.

Jomiy fors she’riyati vaznida juzv va rukn masalalarini o‘rgangach, *zihof* masalasi tadqiqi va tasnifiga e’tibor qaratadi. Nisoriy ham o‘z asarida ustozlari yo‘lidan borib, *zihof* va uning furu‘lari tadqiqiga kirishadi: “Va har bir beshlik ruknning tarkibiy o‘zgarishidan bir necha furu‘lari paydo bo‘ladiki, aruzshunoslar uni *zihof* deb ataydilar. Binobarin, *zihof* va uning furu‘lari bayonida bir fasl tartib

bermoq kerakdir” [5.63]. Ko‘rinadiki, Nisoriy alohida faslda mumtoz she‘riyat vaznida ruknlarning o‘zgarishi, zihof va uning furu‘lari haqida alohida faslda so‘z yuritish zarur ekanligini ta’kidlagan. U mazkur faslni yaratib, har bir zihof nomlari, ularning qaysi bahrlarda kelish ehtimoli borligi haqida so‘z yuritgan.

Nisoriy ham o‘zidan oldingi mualliflar kabi zihofning ta’rifi, ularning nomi va umumiy soni bilan cheklanib qolmay, so‘zi davomida amalda ko‘p qo‘llaniladigan *mafoiylun* ruknining zihof va furu‘lari haqida quyidagicha ma’lumot keltiradi: “*Mafoiylun*ning zihofi o‘n ikki, furu‘lari esa o‘n oltidir” [5.63]. Aruzshunos *mafoiylun* ruknining zihoflarini o‘n ikki, furu‘lari sonini esa o‘n oltita deb ko‘rsatgan. Tartibi, soni va ta’rifi bo‘yicha tasniflagan zihoflar quyidagilardan iborat: *tasbig‘, qabz, kaff, xarm, xarb, shatar, hazf, qasr, hatm, jabb, zalal, batar*. Ta’kidlash joizki, Nisoriy *mafoiylun* ruknining zihoflari tadqiqi va tasnifida Abdurahmon Jomiy qarashlariga tayangan. Jomiy “*Risolai aruz*”ida bu masalada shunday yondashgan edi: “*Mafoiylun*ning zihofi o‘n bir, furu‘lari ham o‘n birdir” [1.163]. Ya’ni Jomiy bu ruknning zihoflarini ham, furu‘larini ham o‘n bir deb ko‘rsatgan. “*Chahor gulzor*”da Nisoriy Jomiyning o‘sha o‘n bir zihofini aynan keltirib, faqat *izola* zihofini qo‘shadi va ularning sonini o‘n ikkita deb ta’kidlaydi. *Mafoiylun* ruknining furu‘larini ko‘rsatishda Nisoriyda tafovut ko‘zga tashlanadi. U “*Chahor gulzor*”da mazkur rukn furu‘larini Jomiyga nisbatan ko‘proq ko‘rsatgan. Masalan, muallif tomonidan ushbu ruknga bog‘liq holda tasniflangan furu‘lar quyidagilardan iborat: *musabbag‘, maqbuz, makfuf, axram, axrab, ashtar, mahfuz, maqsur, ahtam, majbub, azall, abtar, maqbuzi musabbag‘, axrami musabbag‘, ashtari musabbag‘, mahzufi musabbag‘*. “*Risolai aruz*” va “*Chahor gulzor*” qiyosidan ko‘rinadiki, Nisoriy Jomiyga nisbatan furu‘lar sonini beshta ko‘p ko‘rsatgan. Ya’ni, *musabbag‘, maqbuzi musabbag‘, axrami musabbag‘, ashtari musabbag‘, mahzufi musabbag‘* furu‘lari Jomiy asarida uchramaydi.

Nisoriy ham xuddi Jomiy kabi har bir zihofning shakllanish yo‘lini qisqacha ko‘rsatgan. Masalan, Jomiy *hatm* zihofining vujudga kelish qoydasini shunday tushuntirgan: “*Hatm* mafoiylunda *hazf* va *qasr* birlashishidir, undan “*mafo*” qoladi, uning o‘rniga “*fa’o’l*”ni qo‘yadilar” [1.163]. Jomiy *mafoiylun* solim

ruknida *hazf* va *qasr* zohoflarining birlashishi vositasida *hatm* zihofining hosil bo'lishini ta'kidlaydi. Uning zamondoshi Sayfiy Buxoriy "Aruzi Sayfiy" risolasida rukn mavzusini o'rganish asnosida *hatm* zihofini keltirmasdan, balki o'zining uslubidan kelib chiqqan holda bahrlarning tarmoq vaznlarini taqti'lash mavridida uni izohlaydi va she'riy misollar keltiradi. Bu aruzshunos *hatm* va boshqa zihoflarning lug'aviy ma'nolarini ham sharhlashni ma'qul deb bilgan va lugatdagi ma'nolarini keltirgan. Albatta, Nisoriy *hatm* zihofini o'rganish jarayonida Jomiyning tadqiq usulini qabul qilgan. Jumladan, u *hatm* zihofini quyidagicha izohlagan: "*Hatm mafoiylunda hazf va qasr birlashishidir, undan "mafo'" qoladi, uning o'rniga "fa'o'l"ni qo'yadilar*" [5. 63]. Ko'rinadiki, Nisoriy Jomiy ta'rifini hech qanday o'zgarishsiz shunday ixchamlik va soddalik bilan bergan. "Chahor gulzor"dagi shu va boshqa mulohazalardan ham ma'lum bo'ladiki, muallif zihof va uning furu'lari masalasida Jomiy bilan hamfikrdir. Shuning uchun ham Nisoriy Jomiyning "Risolai aruz" asaridan zihof mavzusini yoritishda uslubiy qo'llanma sifatida foydalangan.

Ta'kidlash joizki, Nisoriy mumtoz fors-tojik she'riyati vaznining qolgan to'rt rukni zihof va furu'larini ham xuddi shunday tasniflagan. Jumladan, *foilotun* rukni zihoflari sonini sakkizta va furu'lari sonini o'n uchta, *mustaf'ilun* rukni zihoflari sonini o'nta va furu'lari sonini o'n uchta, *maf'ulotu* rukni zihoflari sonini to'qqizta va furu'lari sonini o'n bitta, *fa'o'lun* rukni zihoflari sonini ettita va furu'lari sonini sakkizta ko'rsatgan. Nisoriy Jomiyning mana shu to'rt rukn va ularning zihof va furu'lari haqidagi ma'lumotlarini takrorlaganligi sababli biz bu masala yuzasidan yuqoridagi muqoyasa va tahlillarni yetarli deb bildik.

Nisoriy zihof va furu'lar bilan bog'liq ruknlardagi o'zgarishlarni tadqiq qilgandan so'ng, aruz ilmining muhim masalasi – *bahr* va uning tarmoq vaznlari tasnifi va tadqiqiga e'tibor qaratgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muallifning bahr mavzusi haqidagi ma'lumotlari boshqa mualliflar singari aruz ilmi haqidagi izlanishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Nisoriy bahr mavzusiga alohida fasl ajratmasdan, aruzning asosiy ruknlarini tushuntirib bo'lgach, bahrlarning tasnifi haqida quyidagicha so'z yuritadi: "Ruknning zihof va furu'larini zarurligi sababli

tushuntirgach, bilginki biri boshqasi tarkibidan hosil bo‘ladigan bahrlarni bilish talab etiladi va ular o‘n to‘qqiztadir: Taval, Madid, Basit, Vofir, Komil, Hazaj, Rajaz, Ramal, Munsarih, Muzori’, Muqtazab, Mujtass, Sari’, Jadid, Qarib, Xafif, Mushokil, Mutadorik, Mutaqorib” [6. 85]. Nisoriy nazarida bahr aruzning eng muhim birligi bo‘lib, ba’zilar boshqalarining tarkibidan hosil bo‘lib, jami o‘n to‘qqiztani tashkil etadi. Muallifning bu ta’rifi Jomiyning “Risolai aruz”ida bahrlarni tadqiq etishning boshida aytgan quyidagi jumllarini yodga soladi: “Bilginki, biri boshqasi tarkibidan yoki ba’zilarining rukniy takrorlanishidan boshqasi hosil bo‘ladigan bahrlar o‘n to‘qqiztadir” [1.167]. Ma’lum bo‘lishicha, Nisoriy bahrlarni o‘rganish va ularni ta’riflashda Jomiy risolasiga tayanib, Tavildan to Mutaqoribgacha bo‘lgan o‘n to‘qqiz bahr nomini tilga oladi. Jomiy risolasida bahr nomlari ham xuddi shu tartibda keltirilgan. Nisoriyning arab aruziga xos bo‘lgan dastlabki besh bahr – Taval, Madid, Basit, Vofir, Komil haqidagi qarashi ham Jomiy nuqtai nazari bilan aynan bir xil. “Chahor gulzor”da muallif mana shu bahrlarning solim ruknlari asosida hosil bo‘lgan solim vaznlarini she’riy misollar bilan ko‘rsatgan. Jumladan, uning Taval bahri haqidagi ma’lumoti quyidagi qisqa jumla va she’riy misoldan iborat: “Tavalning solim rukni musamman bo‘lib, xamosiy va sabo’iydan tarkib topgan – *fa’o’lun / mafoiylun / fa’o’lun / mafoiylun* – ikki marta. Uning misoli, bayt:

Chi go‘yam nigorino, ki bo man chiho kardi,

Qaroram zi dil burdi, zi sabram judo kardi [6. 85].

fa’o’lun / mafoiylun / fa’o’lun / mafoiylun

V – – / V – – – / V – – / V – – –

Nisoriy qolgan yana to‘rt bahr – Madid, Basit, Vofir va Komilni xuddi shu tarzda keltiradi. Jomiyning “Risolai aruz” asarida ham yuqoridagi bahrlarni o‘rganish usulini kuzatamiz. Hatto, Nisoriyning bu bahrlar vaznini taqti’lash uchun keltirgan she’riy misollari ham Jomiy risolasidan olingan. Har ikki muallif ham bu bahrlar haqida qisqacha so‘zlashni afzal ko‘rgan, nimagaki, arab she’riyatiga xos mazkur bahrlar fors-tojik she’riyatida nihoyatda kam ishlatilgan. Masalan, Nisoriy mazkur besh bahrning solim vaznlarini keltirishdan so‘ng, ularning fors-tojik

she'riyatidagi o'rni va amalda iste'mol darajasini o'quvchilarga quyidagicha tushuntiradi: "Mazkur besh bahr bayonidan ayon bo'ldiki, ular arab nazmiga xosdirlar, ya'ni forslar bu bahrlarda kam she'r aytadilar. Shuning uchun bu bahrlarning zihoflari bilan bog'liq vaznlariga she'riy namunalar keltirishni afzal topmadik" [6. 85]. Nisoriyning fikricha, arab aruziga xos mazkur besh bahrda fors-tojik shoirlari kamdan-kam she'r aytishgan, xususan, aruzshunos zamonida bu bahrlar she'riyat ahli e'tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun ham Nisoriy bu bahrlarning tarmoq vaznlarini tadqiq qilish va o'quvchilarga tasniflab berishni ustozi Jomiy kabi zarur deb hisoblamagan.

Ma'lumki, Jomiy va Sayfiy bahrlarni uch guruhga bo'lib, Tavil, Madid, Basit, Vofir va Komil bahrlarini arab she'riyatiga xos, Qarib, Jadid va Mushokil bahrlarini ajam she'riyatiga xos, qolgan o'n bir bahrni esa ham arab va ham ajam she'riyatida teng ishlatiladigan mushtarak bahrlar deb hisoblaganlar. Bu tasnifni Shams Qays Roziy va Nasiriddin Tusiy asarlarida ham ko'rish mumkin. Biroq Nisoriy arab aruzining beshta maxsus bahridan tashqari, fors-tojik aruzining o'n to'rtta umumiy bahrini arablar va ajamlar uchun mushtarak deb hisoblaganki, bu muallifning bahrlar tasnifidagi ishtibohini ko'rsatadi. Chunki arab shoirlari Nisoriy ajdodlari tomonidan kashf etilgan ajam she'riyatiga xos Qarib, Jadid va Mushokil bahrlarida hech qachon she'r yozmaganlar. Shuning uchun ularni mushtarak bahrlar guruhiga qo'shish to'g'ri emas.

XV–XVI asrlarda yaratilgan aruz ilmiga doir risolalar muqoyasasi shuni ko'rsatadiki, Nisoriy fors-tojik she'riyatida amalda qo'llanilgan quyidagi o'n to'rt bahr: Hazaj, Rajaz, Ramal, Munsarihi, Muzori', Muqtazab, Mujtass, Sari', Xafif, Mutaqorib, Mutadorik, Jadid, Qarib, Mushokil talqinida asosan Jomiyning "Risolai aruz" asaridagi ma'lumotlarga tayangan. Nisoriy xoh rukn, xoh zihof yoki bahr, xullas, aruz vazniga aloqador har bir nazariy va amaliy masalalarni talqini va ta'limida Jomiy qarashlari, uning yondashuvlariga ergashgan. Bu adabiy hodisa "Risolai aruz" asarining o'zidan keyingi davr fors-tojik aruzshunosligidagi o'rni va ta'sirini yanada yorqinroq asoslaydi.

Nisoriy bahrlarni o'rganishni Hazajdan boshlab, ustoz Jomiy an'anasiga ko'ra har bir solim va muzohaf (g'ayrisolim) vaznlarni taqti'lash uchun she'riy misollar keltirgan. Nisoriy bahrlarni talqin etishda Jomiy kabi birinchi navbatda uning qaysi xildagi vazn ekanligini aytib, so'ngra mazkur vaznning solim yoki muzohafligini ta'kidlaydi va taqti'lash uchun she'riy misol keltiradi hamda baytda mazkur bahrga xos ruknning necha marotaba takrorlanganligini ko'rsatadi.

XVI asrning iqtidorli nazariyotchi olimi Xoja Hasan Nisoriy ilmi adab maydonida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, o'zining mashhur "Muzakkir ul-ahbob" tazkirasida ham, "Chahor gulzor" nazariy risolasida ham bu asrning ilm-fani va adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan. U "Chahor gulzor"da mumtoz tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalariga e'tibor qaratib, aruz ilmini ixcham shaklda, sodda va tushunarli uslubida shu ilm ixlosmandlariga ta'lim bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmoni Jomi. Osor. Jildi 8. Risolai aruz. – Dushanbe: Adib, 1990. – 496 s.
2. Абдурахмон Жомийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Тошкент: Тамаддун, 2014. – 176 б.
3. Жомий, Абдурахмон. Рисолаи аруз /Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова. – Тошкент: Тамаддун, 2014. – 100 б.
4. Sayfiy. Aruzi Sayfiy /Nashrga tayyorlovchi H.Bloshman. – Kalkutta, 1872. – 56 b.
5. Se risolai aruz: "Aruzi Hamidi", "Aruzi Nisori", "Me'roj-ul-aruz". Muallifonu sarsuxanu tavezhot va hozirkunandagoni chop Urvatulloi Toir va digaron. – Dushanbe, 2014. – 130 s.
6. Xoja Hasani Nisori. Chahor gulzor /Ba nashr hozirkunanda D.Xojayev. – Dushanbe, 1998. – 116 s.
7. Нисорий, Ҳасанхожа. Музаққири аҳбоб /Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1993. – 343 б.

8. Shamsi Qaysi Rozi. “Al-mu’jam”. Muallifoni sarsuxanu tavzehot va hozirkunandagoni chop U.Toirov. – Dushanbe: Adib, 1991. – 464 s.

9. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисоаларнинг қиёсий таҳлили: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 72 б.